

O'ZBEK TILI (DAVLAT TILI) DARSIDA O`QUVCHILARGA FE'L NISBATLARI, FE'LNING VAZIFAVIY SHAKLLARI GRAMMATIK MAVZULARINI TUSHUNTIRISHDA AYRIM TAVSIYALAR

Sadikova Zulfiya Abilkaiirovna

*Qoraqalpog`iston Respublikasi Qonliko`l
tumani 13-sonli umumiy o`rta ta`lim
maktabining o`zbek tili fani o`qituvchisi*

Bugungi kunda yosh avlodga har tomonlama yuqori saviyada ta`lim va tarbiya berish uzliksiz ta`lim oldidagi eng dolzarb ijtimoiy buyurtma hisoblanadi. Bu vazifaning a`lo darajada amalga oshirilishiga erishish ta`lim beruvchiga ham, ta`lim oluvchiga ham yangi- yangi talablarni qo`ymoqda. Fan- texnika rivojlanayotgan , axborot kommunikasiya vositalari o`ta shiddat bilan taraqqiy etayotgan ayni paytda ta`lim beruvchidan o`ta izlanuvchanlik talab qiladi. O`quvchilarga bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda bilim, ko`nikma va malakalar hosil qilishda o`qituvchi interfaol usullardan, turli didaktik mashqlardan foydalanmog`i talab etiladi. Bunday darsda o`quvchining mavzuni tushinishi oson bo`ladi. O`quvchilarning mustaqil fikrlashi oshadi, mavzu asosida erkin mulohaza yuritishiga imkoniyat yaratiladi. Bu jarayonda hatto bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilar ham faol bo`lishga intiladi.

| № | Gaplar | Majhul nisbat(+) | O`zlik nisbat(+) | Natija(O`qituvchi tekshiradi) |
|----|-------------------------------------|------------------|------------------|-------------------------------|
| 1 | Darsdan keyin xonalarni tozalaymiz. | | | |
| 2 | Darsdan keyin xonalar tozalanadi. | | | |
| 3 | Biz partaga ikkitadan o` tirdik. | | | |
| 4 | Partalarga ikkitadan o` tirildi. | | | |
| 5 | Bolalar gullarga suv quydilar. | | | |
| 6 | Gullarga suv quyildi. | | | |
| 7 | Terimchilar paxtalarni terdilar | | | |
| 8 | Paxtalar terildi. | | | |
| 9 | Navbatchi qo`ng`iroqni chaldi. | | | |
| 10 | Qo`ng`iroq chalindi. | | | |
| 11 | | | | |
| 12 | | | | |

8-sinf o`zbek tili darsida o`tilishi lozim bo`lgan “Fe’lning o`zlik va majhul nisbati, ularning yasalishi va qo`llanishi ”mavzusini o`yinli ta`lim usullaridan foydalanib tashkillashtirish mumkin. Avval o`qituvchi darsning maqsadini belgilab olgan holda , sinfdagi o`quvchilarning soniga qarab , dars rejasini ishlab chiqadi. Grammatik mavzu tushuntiriladi, bunda muommo ikkita nisbatning ham qo`shimchalarining bir xilligida. O`qituvchi ana shu nisbat yasalishining farqini ikkita nisbatni qiyoslagan holda o`rgatsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Bunda gap shaklida misollar beriladi va jadvallardan foydalaniladi. Darslikdagi 4-mashqda berilgan gap shaklidagi misollarni jadvalga ishlab blits savolnoma shaklida o`rgatilsa o`quvchi farqni tez topa oladi.

Bunda jadvalni o`quvchi yakka holda to`ldiradi va o`qituvchiga taqdim qiladi. 11 va 12 gaplarni o`quvchi o`zi yodtan yozadilar. Gaplarning bittasi majhul nisbatdagi, ikkinchisi o`zlik nisbatdagi gaplardan tashkil topishi kerak bo`ladi.

Maqsad: Bunda o`quvchi majhul va o`zlik nisbatni bir-biridan farqlay oladi.

Fe`ning ortirma nisbati bo`ycha o`quvchilarga tushincha berilgandan so`ng mustahkamlash uchun boshqa nisbatlardan ortirma nisbatning farqini ajratib olish uchun qo`shimchalar tushirilgan ma`lumot varaqasini o`qituvchi taqdim etadilar.

| | | | | | | |
|------|------|------|-------|-----|-------|------|
| -l | -t | -in | -g`iz | -ir | -ning | -ni |
| -sh | -iz | -dir | -sat | -ma | -kiz | -dan |
| -qaz | -gaz | -ish | -qiz | -da | -ku | -ib |
| -giz | -tir | -il | -lar | -b | -gaz | -qi |

Bunda o`qituvchi jadvalni taqdim qilmasdan avval shartini yaxshilab tushintirib oladilar, qo`shimchlarning ichidan faqat ortirma nisbat qo`shimchalarini topib gap shaklida misollar yozishni topshiradilar. Agarda ortirma nisbat qo`shimchasini topsa katakcha ichiga (+) belgisi qo`yib belgilanadi. **Maqsad:** O`quvchi ortirma nisbat qo`shimchalarini ajrata oladi.

Fe`ning vazifaviy shakllari, harakat nomi fe`llarini o`quvchilarga tushintirib bergan so`ng mustahkamlash va o`quvchilarning tez tushunib olishi va boshqa fe`llardan farqini o`rganishi uchun “Qiziqishlar” metodi tashkillashtiriladi, bunda o`quvchilar bir-birlarining yaxshi ko`radigan mashg`ulotlari haqida gapiradi, agarda mashg`ulot to`g`ri kelmasa ma`lumot egasi tomonidan to`g`rilanib ketiladi. Masalan:

-Siz juda aqlisiz, sizning eng yaxshi ko`rgan mashg`ulotingiz -kitob o`qish.

-Albatta, sizning yaxshi ko`rgan mashg`ulotingiz esa- suzish va yugirish. Shu tariqa o`quvchilar bir-biriga ta`rif beradilar va harakat nomi fe`llarini tushinib oladilar, gap shaklida misollar tuzib o`rganadilar.

Maqsad: O`quvchilarning bir-biriga hurmatini orttirish va harakat nomi fe`llarini gap shaklida qo`llay olishdan iborat.

Ravishdoshlar mavzusini o`quvchilarga tushintirganimizda avval ravish so`z turkumi bilan farqini o`rgatishimiz kerak. Bunda avval grammatik mavzu tushuntiriladi va bunda ham jadvallarga murojaat qilsak bo`ladi.

| | | | | | |
|------------|----------|----------|-----------|------------|-----------|
| astoidil | Yomon | erta | shoshib | endin | avval |
| burun | Tez | aytgach | oshiqib | kelgach | chizib |
| ishlagach | yaxshi | asta | miriqib | siqilib | tasvirlab |
| ilhomlanib | charchab | yugurib | miltillab | aralashmay | Yura-yura |
| bugun | o`qimay | o`qigani | gapirib | siqqancha | ketib |

Katakcha ichida ravish va ravishdosh so`zlar beriladi, o`quvchi ikki xil rangda farqini ajratib beradilar. Masalan: Ravishni sariq rangga, ravishdoshni yashil rangga bo`yadilar. Agar

imkon bo'lsa kompyuterlarda ham bajarib bersa bo'ladilar. Maqsad: Ravish va ravishdoshlarni farqlashdan iborat.

Ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi fe'llarini bir-biridan farqlash, tez tushunib olish uchun o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, 3 ta guruhga ajratib har bir guruhga 3 xil matn beriladi. 1-guruh ravishdosh so'zlarni, 2-guruh harakat nomi fe'llarni, 3-guruh sifatdoshlarni topadilar. Har bir guruhga matn ichida birxil sonda fe'l shakllariga misollar beriladi. Vaqt beriladi. Fe'lning vazifaviy shakllarining tagi chiziladi. Matn varaqasi guruhlarda almashiladi va tagi chizilgan vazifaviy shakllarini o'z guruhidagi topilgan vazifaviy shakllarga aylantirib yozib chiqadilar.

Masalan:

Men do'stim Anvar bilan kitob o'qishni yaxshi ko'raman.

Do'stim Anvar menga kitob o'qib berdi.

Do'stim Anvar kitob o'qigan ekan. Vazifa shu tariqa davom ettiriladi.

Maqsad: Fe'lning vazifaviy shakllarini bir-biridan farqlay olishdan iborat.

Nisbat qo'shimchalarining birdan ortiq qo'llanishi mavzusini tushintirib bbergach, mustahkamlash uchun og'zaki savollar tayyorlab kelish kerak. O'quvchi shu savollarga birdan ortiq nisbat qo'shimchalarini qo'llab javob berishi talab qilinadi. Bunda o'qituvchi bitta misolni o'zi ko'rsatib, tuzib berishi talab qilinadi.

Masalan: Adabiyot fani o'qituvchingiz qansha she'r yodlattirdilar?

Adabiyot fani o'qituvchimiz bizda 20 she'r yodlattirdi. Savollar ham shunga moslab tuzib kelinishi talab qilinadi. Javob berish orqali o'quvchi mavzuni tushinib oladilar.

Bog'lovchilar mavzusini o'rgatishda ham jadvallardan foydalansak bo'ladi.

| | Havo bulut | chunki | Yerlar loy bo'lib ketdi |
|------------------|-----------------------|--------------------|-------------------------------------|
| Lekin | Yomg'ir yog'di | U o'qishga kelmadi | Uning onasi kasal bo'lib qolgan edi |
| Havo sovib ketdi | Qushlar pastlab uchsa | va | Yomg'ir yog'adi. |
| Agar | Yomg'ir yog'madi | Qor yog'di | sababi |

| |
|--|
| Agar qushlar pastlab uchsa yomg'ir yog'adi. |
| Havo bulut, lekin yomg'ir yog'madi. |
| Qor yog'di va havo sovib ketdi. |
| U oqishga kelmadi, sababi uning onasi kasal bo'lib qolgan edi. |

Shu shaklda o'quvchi jadvalga gaplarni bog'lovchilarni foydalangan holda to'g'ri bajarib berishlari kerak bo'ladi. Maqsad: Bog'lovchilarni gap ichida to'g'ri qo'llay olish.

Faollikka undovchi, mavzuga qiziqtiruvchi mazkur usullardan foydalanib dars o'tish maqsadga muvofiq hisoblanib, bunday dars usullari o'quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytib, o'zlashtirish jarayonida faolligi oshadi, darsdan chalg'imagan holda dam olish sharoiti yaratiladi, darsning samaradorligi oshadi, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.